

## **O‘ZBEK PSIXOLOGLARI QARASHLARIDA KOMPETENTLIK MASALASINING YORITILISHI**

**Erimmetova Nafisa Bahramovna**

**Al-Xorazmiy universiteti Xalqaro hamkorlik bo‘limi bosh mutaxassisi**

Zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishi, ayniqsa ta‘lim tizimida shaxsning kompetent bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kompetentlik tushunchasi insonning kasbiy, ijtimoiy va shaxsiy sohalarida samarali harakat qila olish salohiyatini ifodalaydi. Bu tushuncha xalqaro ilmiy doiralarda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, o‘zbek psixologiyasi doirasida ham kompetentlikning mazmuni, shakllanishi va rivojlanishiga oid muhim ilmiy qarashlar mavjud.

O‘zbek psixologlari tomonidan ham innovasiya, innovatsion tafakkur, talabalarning o‘ziga xos o‘quv-ilmiy faoliyati masalalari keng qamrovda yoritib berilgan. Xususan, M.G.Davletshin o‘z ilmiy izlanishlarida aynan innovasiya masalasiga to‘xtalib o‘tmagan bo‘lsa ham, shaxs qobiliyatlari, bo‘lajak pedagoglarning kreativ fikrlashi masalarini tadqiq qilgan. Bo‘lajak pedagog “o‘zlashtirgan ma’lumotlarini zamon bilan hamnafas holda yangi g‘oyalar uchun asos qila olish”<sup>1</sup> lozimdir. Mazkur fikr asosida aynan talbalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati ochib berilgan. Chunki, o‘zlashtirilgan ma’lumotlarni yangicha qarash asosida amaliyotda qo‘llash uchun talabadan kreativ tafakkur, keng dunyoqarash talab etiladi.

V.M.Karimova va uning shogirdlari tomonidan innovatsion kompetentlikning muhim mezonini bo‘lgan mustaqil fikrlash masalasi keng tadqiq qilingan. Xususan, V.M.Karimova «obyektiv olamdagi voqea-hodisalarning inson ongiga ta’sir etishi natijasida hosil bo‘ladigan tuyg‘u «fikr» deb ataladi. Fikr asosida inson ko‘zi bevosita ilg‘amayotgan, uning ko‘z o‘ngida bo‘lmagan, bo‘lgan taqdirda ham o‘sha narsaning ichki xususiyatiga aloqador bo‘lgan sirli jihatlarini ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shaxsning mustaqil fikrlashi uning o‘zi va boshqalarni fikrlarini tanqidiy baholay olishida, qarashlarining aniqligida, fikrlar qarama-qarshiligini anglay olishida, nazariy va amaliy fikrlarni uyg‘unlashtira olishida, tashabbuskorligida ko‘rinadi»<sup>2</sup>. Bizningcha, shaxsdagi innovatsion kompetentlikning asosini tashkil etuvchi mustaqil fikrlash innovatsion tafakkurga olib keladi. Natijada shaxs innovatsion tashabbuslarni namoyon qiladi.

---

1. <sup>1</sup> Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi. T., O‘zbekiston. - 30 bet.

<sup>2</sup> Karimova V.M., Xolyigitova N.X. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot”, 2014. – 175 b.

Shaxsning tafakkuri, ijodif fikrlashi masalasida keng doirada ilmiy izlanish olib borgan olimlardan biri E.G'oziyevdir. E.G'oziyev aynan talabalarning mustaqil ijodiy fikrlashini shakllanishi masalasini tadqiq etib, "Talabalar tafakkuri, asosan, o'qish va mustaqil bilim olish faoliyatlarida intensiv va uzluksiz ravishda rivojlanadi. Ma'ruza mashg'ulotlari ularning reproduktiv tafakkurni taqozo etsa ham, lekin seminar mashg'ulotlari, laboratoriya praktikumi produktiv fikr yuritish faoliyatini talab qiladi. Produktiv tafakkur esa egallangan bilim asosida qisqa muddatda yangi ilmiy, orginal g'oyalarni paydo qilishni talab etadi"<sup>3</sup>. Olim produktiv tafakkurning o'ziga xos sifatlarini fikrlarning orginalligi, intuitiv harakterga egaligi, mantiqiy izchilligi bilan belgilab ko'rsatadi. Mazkur jihatlar, o'ylashimizcha shaxsning innovatsion kompetentligini asosi sifatida xizmat qiladi. Chunki innovatsion kompetentlik g'oyalarning orginalligini ko'rsata bilishda, fikrlar mantiqig'ini amalda qo'llay olishda ko'rinadi.

Z.T.Nishanova esa dissertasion tadqiqotlarida mustaqil fikrlashning o'ziga xos jihatlarini o'rganib, «Mustaqil fikrlash shaxs xislati sifatida har qanday faoliyat turida individual va jamoaviy yutuqlarga erishishda yuqori ko'rsatkichni ta'minlaydigan muhim omillardan biridir»<sup>4</sup>, deb ta'kidlaydi. Darhaqiqat shaxsning faoliyatdagi muvaffaqiyati uning mustaqil fikrlash darajasiga bog'liq. Xattoki innovatsion faoliyatdagi muvaffaqiyat va tashabbslar bevosita mustaqil ijodiy fikrlashga asoslanadi. Biz ham o'z ilmiy izlanishlarimizda iinovatsion kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlaridan biri sifatida mustaqil ijodiy tafakkurni shakllanishiga e'tibor qaratishga harakat qilganmiz.

Innovatsion kompetentlikni psixosemantikasini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin:

- analogli innovatsiya, ya'ni innovatsiya klassik metodlarning prinsiplariga asoslanib, uning ayrim xususiy qismlariga o'zgartirishlar kiritiladi;
- kombinatsiyalashtirilgan innovatsiya. Bunda yangi yondashuvga erishish uchun mavjud ta'limiy bloklar birlashtiriladi;
- retro innovatsiya, ya'ni qachonlardir mavjud bo'lgan va qo'llanilmaydigan metodlarni yangidan faoliyatda qo'llash;
- mohiyatli innovatsiya, ya'ni mavjud bo'lgan, ammo amaliyotda qo'llanilmagan metodlar.

<sup>3</sup> G'oziyev E.G'. Oliy ta'limda psixologik xizmat – T.: O'qituvchi, 2002. – 95 b.

<sup>4</sup> Nishanova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - T., 2005. - 391 b.

D.G. Muxamedova olib borgan tadqiqot ishlarida oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni ta'minlashga qaratilgan ta'lim menejerlarini tayyorlash dasturini quyidagicha ya'ni, insonparvarlik tamoyili; demokratlashtirish tamoyili; ilmiylik tamoyili; uzviylik, uzluksizlik va integratsiya tamoyili; individuallashtirish tamoyili; ta'lim menejerini innovatsion faoliyatga tayyorlashni yuksaltiruvchi, yo'naltiruvchi tamoyil; innovatsionlik tamoyili; interaktivlik tamoyili; tayyorgarlikning mazmun va shaklini variatsiyalash tamoyillari ko'rinishida ishlab chiqishni tavsiya etadi. Olimaning fikricha oliy ta'lim muassasalarida ta'lim menejerlarini tayyorlash uchun ishlab chiqilgan dastur o'z ichiga motivatsion, kompensatorlik, korreksiyalovchi, prognostik, diagnostik, rag'batlantiruvchi, axborotlashgan, konsultativ kabi asosiy vazifalarni qamrab olishini alohida ta'kidlaydi<sup>5</sup>. Bundan ko'rinadiki, ta'lim menejerlarining muvaffaqiyatli faoliyati ularni tayyorlov bosqichida amalga oshirilsa, ta'lim samaradorligini ta'minlashning poydevori mustahkam ko'rinishga ega bo'ladi. Tahlillardan ko'rinib turibdiki, muallif ko'proq e'tiborni menejerlar tayyorlash masalasiga qaratgan. Biz esa talabalarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish masalasini izohlashga uringanmiz.

B.S. Abdullayeva tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida bo'lajak o'qituvchilardagi funksional holatning latepal profil jarayonga ta'siri «muvaffaqiyatga intilish», «kasbni egallashga intilish», «ijtimoiy» motivlash va «progressiv-stenik» hissiy sifatlab orasidagi integrativ xususiyatlarning ijodiy innovatsion faollikda namoyon bo'lishi tufayli, o'quv-ilmiy faollikning «yangilikka ta'sirchanlik» sifati bilan motivatsion jihatlarining rivojlanishiga idiyentiv bog'liq ekanligi o'rganilgan<sup>6</sup>. Mazkur ilmiy izlanishdan farqli ravishda biz, talabalarning ilmiy faoliyatga tayyorligida innovatsion kompetentligini o'rnini tadqiq etganmiz.

A.M. Nazarov tomonidan olib borgan ilmiy izlanishlarda talabalarning ilmiy-innovatsion faoliyatga tayyorlash tamoyillari va komponentlarini ochib berish bilan talabalarni ilmiy innovatsion faoliyatga yo'naltiruvchi yangicha fikrlash, g'oyalarning rivojlanishi bilan bog'liq masalalarning farqli jihatlari va uning faoliyat davomida namoyon bo'luvchi darajalarini tizimli tahlil qilib o'rganilgan. Uning fikricha, talabalarda pedagogik-psixologik barqarorlik xususiyatlari ularning o'z hissiyotlari, g'oyalari, xatti-harakatlarini to'g'ri boshqara olish, o'zini-o'zi tartibga solish, aqliy qobiliyatlarining rivojlantirish natijasida o'quv va ilmiy-innovatsion faoliyatning

<sup>5</sup> Muxammedova D.G. Ta'lim menejerini innovatsion faoliyatga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik texnologiyalarini takomillashtirish. /Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2015. – 75 b.

<sup>6</sup> Abdullayeva B.S. “Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari” Psixol.f.d. (DSc)... dissertatsiya avtoreferati: 19.00.01. 19.00.02 – Buxoro.-2022. - 56 b.

samaradorligini ta'minlash imkoniyatlari takomillashib boradi<sup>7</sup>. Demak, talabalar ilmiy - innovatsion faoliyatini shakllantirib borishi uchun ushbu faoliyatga xos tamoyillar va komponentlarga amal qilishi, pedagogik-psixologik barqarorlikni ta'minlashi oliy ta'lim muassasalarida ta'lim samaradorligini oshirishda ijodiy innovatsion faoliyatni yuzaga keltiruvchi determinant sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'.U.Shukurova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida talabalarning innovatsion faoliyatga yo'nalganligini ijtimoiy-psixologik jihatlariga e'tibor qaratilgan. Muallif talabalarni bilim olishga intilish, mustaqil ish yuritish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, o'ziga ishonch, kirishimlilik, hamkorlik qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish kabi shaxsiy xususiyatlarini innovatsion faoliyat bilan shug'ullanishlarida hayotiy qadriyatlar bilan aloqadorligining yuqori, o'rta, past darajali ko'rsatkichlarini aniqlagan<sup>8</sup>. Bundan shuni kuzatish mumkinki, talabalarning innovatsion faoliyatga yo'nalishida hayotiy qadriyatlar bilan bog'liq masalalar ham alohida ahamiyatga egadir.

Yana bir tadqiqotchi F.A.Choriyevning ilmiy tadqiqot ishlarida talabalar kreativ tafakkuri diagnostikasining psixologik mexanizmlarini tavsiflovchi jihatlarini, ta'lim jarayonida tafakkur diagnostikaga ta'sir ko'rsatuvchi omillari, talabalar kreativ tafakkuridagi yetakchi tiplar va uslublarning darajalari, sinalluvchilar kreativ tafakkuri diagnostikasida ta'lim bosqichlari, ta'lim yo'nalishlari, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan usullarining xususiyatlari aniqlangan<sup>9</sup>. Mazkur jihatlar esa talabalardagi ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishda muhim omillar ekanligi asoslangan.

G.N.Ibragimovanning ilmiy ishlarida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning umumkasbiy va sohaga yo'naltirilgan kognitiv, ijtimoiy kompetensiyalarga yo'naltirilgan faoliyati tuzilmasi komponentlari, tashkiliy-ijodiy hamda integratsion yondashuv asosida o'quv va tarbiyaviy faoliyatni loyihalashtirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari vositasida talabalarda kreativlik qobiliyatlarni rivojlantirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Yuqorida tahlil qilib berilgan ilmiy izlanishlar o'z mohiyati va yo'nalishiga ko'ra talabalarning innovatsion, ilmiy faoliyatini o'ziga xos jihatlarini tadqiq etgani bilan,

<sup>7</sup> Nazarov A.M. Talabalar ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik barqarorligi. Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati 19.00.06. Toshkent -2022. 67 b.

<sup>8</sup> Shukurova O'.U. Talabalarni innovatsion faoliyatga yo'nalganligining ijtimoiy-psixologik jihatlarini. Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 19.00.05. Toshkent -2022. 56 b.

<sup>9</sup> Choriyev F.A. Talabalarda kreativ tafakkur diagnostikasi: psixol.f.d. disser avtoreferati: 19.00.01. – T., O'ZMU 2021.50 b.

innovatsion kompetentlik masalasi to'liq yoritib berilmagan. Ta'lim nazariyasidan ma'lumki, ta'limning mahsuldorligini ta'minlash bevosita ta'lim oluvchining ham psixologik va pedagogik kompetentligiga bog'liqdir. Bunda ta'lim oluvchilarning innovatsion kompetentligi omillarini e'tiborga olish, qiziqishlari, motivlari ham alohida ta'sir darajasiga egadir. Shu sababli bolalarni ta'linga tayyorlash davomida innovatsion yondashuvning iqtisodiy, madaniy, kasbiy va amaliy ahamiyatdorligi haqida ma'lumotlar berish talab etiladi.